**Avtotransport vositalari** – yo‘lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo‘ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

**Tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi)** – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda, tashilgan yuklar miqdori har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og‘irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og‘irligi bo‘yicha aniqlanadi (tonnada o‘lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko‘rsatilgan yuk ko‘tarish qobiliyati bo‘yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og‘irligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar bo‘lmagan hollardagina amalga oshirilishi mumkin. Umumiy foydalanishdagi transportlarning barcha turlari uchun (avtotransportdan tashqari) tashilgan yuklarning hajmi jo‘natish vaqtida ko‘rsatilgan.

**Yuk aylanmasi** – transportning yuk tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Transportning yuk aylanmasi tashilayotgan yukning har bir jo‘natmasi og‘irligini uni tashish masofasiga ko‘paytmasining yig‘indisi orqali aniqlanadi.


**Tashilgan yo‘lovchilar** – ma’lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo‘lib yo‘lovchiqatnovi hisoblanadi).

**Yo‘lovchi aylanmasi** – transportning yo‘lovchi tashish bo‘yicha ish hajmi. O‘lchov birligi yo‘lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo‘yicha yo‘lovchilar sonini tashish masofasiga ko‘paytmasini yig‘indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo‘yicha alohida hisoblanadi.

2024-yilning yanvar– dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 105 341,3 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning shu davriga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 103,7 % ga o‘sib, 40 823,4 mlrd. so‘mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 38,8 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi (avto savdo va ovqatlanishni qo‘shmagan holda. \*Toshkent shahar savdo aylanmasida yashirin iqtisodiyot hisobga olinigan holda) tarkibi, foizda  
(2024- yil yanvar–dekabr holatiga)**




2024-yilning yanvar–dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo‘yicha quyidagicha ifodalanadi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan Chilonzor tumani 16,4 %, Shayxontohur tumani 11,0 %, Yunusobod tumani 10,2 %, Uchtepa tumani 8,9 %, Yashnobod tumani 8,2 %, Yakkasaroy tumani 8,0 %, Mirzo Ulug`bek tumani 7,9 %, Mirobod tumani 7,3 %, Olmazor tumani 7,0 %, Sergeli 5,8 %, ni tashkil etgan bo‘lsa, Bektemir 3,7 %, Yangihayot tumani 1,5 % bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.



**Tumanlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi  
ulushi, foizda**


**2024 -yil yanvar – dekabr oylarida**



**Chakana savdo tovar aylanmasining tumanlar kesimida**

**o’sish sur’ati, foizda**

**2024 -yil yanvar – dekabr oylarida**






Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasi barcha tumanlarda o'sish kuzatilgan, jumladan eng katta o'sish sur'ati Yangihayot tumani 126,7 %, Bektemir tumani 122,8 % va Yashnobod tumani 117,4 % bilan Toshkent shahrida yetakchilik qilmoqda, o'sish sur'ati nisbatan pastroq ko'rsatkichlar: Yunusobod tumani 108,4 %, Shayxontoxur tumani 108,3 %, Chilonzor tumani 105,4 % ni tashkil etgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 27 606,7 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati 111,6 % ni tashkil etgan. Ichki savdo tovar aylanmasining umumiyligi hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 6,5 % ni tashkil etdi.

Umumiyligi ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiyligi hajmida eng katta ulush Shayxontohur tumani 21,7 %, Yunusobod tumani 12,8 %, Mirobod tumani 12,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yangihayot tumani 1,7 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

### **Tumanlar kesimida umumiyligi ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi ulushi, foizda**

**2024 -yil yanvar – dekabr oylarida**



Avto savdo va ovqatlanish tashkilotlarini qo'shmagan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 34,2 mln. so'mni tashkil etdi. O'rtacha aholi jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Chilonzor tumani (62,8 mln. so'm), Yakkasaroy tumani (62,0 mln. so'm), Bektemir tumani (61,6 mln. so'm), Mirobod tumani (50,5 mln. so'm), Sergeli tumani (36,1 mln. so'm) kuzatildi.



**Tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanma**  
 (2024-yil yanvar- dekabr, avto savdo va umumiy ovqatlanishni  
 qo'shmagan holda. \*Toshkent shahar savdo  
 aylanmasida yashirin iqtisodiyot hisobga olingan)


	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mldr. so'm</i>	<i>2023- yil yanvar- dekabrga nisbatan, % hisobida</i>	<i>ming so'm</i>	<i>2023- yil yanvar- dekabrga nisbatan, % hisobida</i>
<b>*Toshkent shahar</b>	<b>105 341,3</b>	<b>110,9</b>	<b>34 237,3</b>	<b>108,0</b>
<i>tumanlar:</i>				
Bektemir	3 880,9	122,8	61 601,3	113,2
Mirzo Ulug'bek	8 357,9	110,0	25 016,3	107,7
Mirobod	7 735,4	110,1	50 491,9	108,4
Olmazor	7 416,9	111,8	18 169,8	109,5
Sergeli	6 156,8	109,7	36 067,8	106,2
Uchtepa	9 405,8	113,9	31 300,5	112,4
Chilonzor	17 325,6	105,4	62 796,7	104,5
Shayxontohur	11 591,3	108,3	31 541,0	107,0
Yunusobod	10 778,9	108,4	28 313,3	105,8
Yakkasaroy	8 466,5	116,9	61 979,9	111,4
Yashnobod	8 678,9	117,4	28 464,8	113,5
Yangihayot	1 589,9	126,7	8 759,7	117,2

2024-yilning yanvar–dekabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 247 099,5 mldr. so‘mni yoki 2023-yilning shu davriga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 31,1 % ga teng bo‘lib, hajmi 76 829,2 mldr. so‘mni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

Xususan, ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan Olmazor tumani 13,4 %, Yashnobod tumani 12,4 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Yangihayot tumani 2,7 % va Bektemir tumani 1,7 % ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

### Chakana savdo kichik biznes ulushi (2024-yil yanvar-dekabr oylari, tumanlar kesmida)




2024-yilning yanvar - dekabr oylarida Toshkent shahrining kichik biznes ulushi Chakana savdoda yuqori ulushga ega tumanlar Bektemir 88,7 foiz, Uchtepa 84,3 foiz, Chilonzor 67,4 foizga o’sgan bo‘lib, past ko‘rsatgichga Yashnobod 51,1 foiz, Yakkasaroy 48,5 foiz va Mirobod 48,0 foiz hissasiga to‘g‘ri keladi.




## ISTE'MOL BOZORI



**Tumanlarning ulgurji savdo (avto savdosiz) tovar  
aylanmasidagi ulushi, foizda  
2024-yil yanvar – dekabr oylarida**



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz) tarkibi, foizda  
2024- yil yanvar – dekabr oylarida**



Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 9,8 % ga ko‘payib, 170 270,3 mlrd. so‘mga yetdi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 68,9 % ni tashkil qildi.



**Ulgurji savdo tovar aylanmasi (avto savdosiz)**  
**(2024- yil yanvar-dekabr)**

	<i>mldr. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>247 099,5</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	3 565,7	1,7
Mirzo Ulug'bek	17 811,0	8,3
Mirobod	24 965,0	11,5
Olmazor	28 710,5	13,4
Sergeli	11 460,3	5,3
Uchtepa	12 312,8	5,7
Chilonzor	23 362,7	10,9
Shayxontohur	13 961,7	6,5
Yunusobod	20 768,1	9,7
Yakkasaroy	25 670,5	11,9
Yashnobod	26 568,4	12,4
Yangihayot	5 780,0	2,7



## Yirik korxonalarining ulgurji savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasi

(2024- yil yanvar-dekabr)

	<i>mldr. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>76 829,2</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	1 095,1	1,4
Mirzo Ulug‘bek	4 564,7	5,9
Mirobod	7 048,4	9,2
Olmazor	11 599,1	15,1
Sergeli	3 915,9	5,1
Uchtepa	1 601,9	2,1
Chilonzor	6 643,1	8,6
Shayxontohur	2 229,4	2,9
Yunusobod	6 789,9	8,8
Yakkasaroy	8 478,1	11,0
Yashnobod	10 647,0	13,9
Yangihayot	2 216,3	2,9

Toshkent shahrida yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi 110,3 % ga o‘sib, 76 829,2 mldr. so‘mni va umumiyligi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 31,1 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo‘lgan Olmazor tumani 15,1 %, Yashnobod tumani 13,9 %, Yakkasaroy tumani 11,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Uchtepa 2,1 % va Bektemir tumanlari 1,4 % ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.



**Yirik korxonalarining chakana savdo (avto savdosiz) tovar aylanmasi  
(2024-yil yanvar-dekabr)**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>40 823,4</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	439,6	1,1
Mirzo Ulug‘bek	3 346,9	8,6
Mirobod	4 025,7	10,4
Olmazor	2 655,8	6,9
Sergeli	2 889,2	7,5
Uchtepa	1 476,1	3,8
Chilonzor	5 655,0	14,6
Shayxontohur	5 176,6	13,4
Yunusobod	3 843,3	9,8
Yakkasaroy	4 360,7	11,3
Yashnobod	4 243,0	11,0
Yangihayot	626,0	1,6

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo‘lgan Chilonzor tumani 14,6 %, Shayxontohur tumani 13,4 %, Yakkasaroy tumani 11,3 %, ni tashkil etgan bo‘lsa, Yangihayot tumani 1,6 % va Bektemir tumani 1,1 %, ulush bilan eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.



**Yirik korxonalarining umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi  
(2024- yil yanvar-dekabr)**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>10 187,4</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>		
Bektemir	140,5	3,4
Mirzo Ulug‘bek	55,6	1,3
Mirobod	1 021,7	24,6
Olmazor	40,9	1,0
Sergeli	446,7	10,7
Uchtepa	12,8	0,3
Chilonzor	278,0	6,7
Shayxontohur	1 341,1	32,2
Yunusobod	494,8	11,9
Yakkasaroy	117,1	2,8
Yashnobod	211,2	5,1
Yangihayot	0,1	0,003

Yirik korxonalarining umumiy ovqatlanish tovar aylanmasi hajmda katta ulushga ega bo‘lgan Shayxontohur tumani 32,2 %, Mirobod 24,6 %, Yunusobod tumani 11,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, Yangihayot tumani 0,003 % eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Chakana savdo** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lмаган miqdorlarda naqd pulga sotishni nazarda tutuvchi faoliyat, ya'ni tovarlarni foydalanish sohasidan shaxsiy yoki umumiy iste'mol sohasiga o'tgan vaqtdagi harakatining yakuniy bosqichini ifodalaydi.

**Chakana tovar aylanmasi** – tovarlarni sotish tarmoqlaridan qat'i nazar, aholiga iste'mol tovarlarini naqd hisob-kitob asosida yoki plastik kartochkalari, kredit kartochkalari, banklarning hisob cheklari orqali (bu ham naqd hisob-kitob asosida sotish kabi hisobga olinadi) sotilgan qiymati.

**Umumiy ovqatlanish** – yuridik shaxslar tomonidan pazandachilik mahsulotlarini tayyorlashga, sotishga va iste'molini tashkil qilishga ixtisoslashtirilgan faoliyatni amalga oshirish.

**Umumovqatlanish aylanmasi** – joyida aholiga iste'mol uchun, shuningdek, turli kontingentdagi aholini ovqatlanishini tashkil qilish uchun tashkilot va yakka tadbirkorlarga o'zi ishlab chiqargan kulinariya mahsulotlarini (taom, kulinariya mahsulotlari va yarimfabrikatlar), shuningdek, kulinariya ishlovisiz sotib olingan tovarlarni (unli, qandolatli va non mahsulotlari) sotishdan tushgan tushumni ifodalaydi.

**Ulgurji savdo** – tijorat maqsadlarida yoki o'zining ishlab chiqarish-xo'jalik ehtiyojlariga foydalanish uchun, xarid qilingan tovarlarni naqd pulsiz hisob-kitoblar shakli bo'yicha sotish.

**Iste'mol tovarlari** – yakuniy iste'molga (oilaviy yoki shaxsiy) qaratilgan, bevosita inson ehtiyojini qondiradigan tovarlar va xizmatlar.

**Texnik-ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlar** – ishlab chiqarish iste'moli uchun mo'ljallangan mahsulot: xomashyo, materiallar, yoqilg'i, butlovchi instrumentlar, mashinalar, ehtirot qismlar, yarimfabrikatlar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – tuzilgan shartnomalar bo'yicha tijorat maqsadlarida (kelajakda qayta ishlash yoki sotish) yoki o'zining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pulsiz hisob-kitob shaklida tovarlar sotishdan tushumni ifodalaydi.




Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-dekabr oylarida 25 337,8 mln. AQSH dollarni, jumladan eksport 5 527,3 mln. AQSH dollarni, import 19 810,5 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.

Tashqi savdo saldosи -14 283,2 mln. AQSh dollarni, shu jumladan MDH davlatlari bilan -5 738,1 mln. AQSH dollarni va boshqa davlatlar bilan minus -8 545,1 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.

**Toshkent shahrining tashqi savdo aylanmasi  
(2024- yil yanvar-dekabr oylarida)**

	mln. AQSh dolları	2023- yilning yanvar-dekabrga nisbatan, % hisobida	Jamiga nisbatan ulushi, % hisobida
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>25 337,8</b>	<b>100,6</b>	<b>100,0</b>
MDH davlatlari	10 269,8	110,5	40,5
boshqa davlatlar	15 068,0	94,8	59,5
<b>Eksport</b>	<b>5 527,3</b>	<b>101,4</b>	<b>21,8</b>
MDH davlatlari	2 265,8	93,2	41,0
boshqa davlatlar	3 261,5	108,0	59,0
<b>Import</b>	<b>19 810,5</b>	<b>100,4</b>	<b>78,2</b>
MDH davlatlari	6 858,9	8 003,9	40,4
boshqa davlatlar	11 806,5	91,7	59,6
<b>Saldo</b>	<b>-14 283,2</b>	<b>100,0</b>	<b>X</b>
MDH davlatlari	-5 738,1	X	X
boshqa davlatlar	-8 545,1	X	X


**MDH va boshqa davlatlarning Toshkent shahar  
tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, foizda  
(2024- yil yanvar-dekabr)**



Toshkent shahrining 2024-yil yanvar-dekabr holatiga tashqi savdo aylanmasidagi ulushining 40,5 % MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi, qolgan 59,5 % boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar 2023-yilda mos ravishda 40,5 % MDH davlatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan 59,5 % boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Toshkent shahrining MDH davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-dekabr holatiga 10 269,8 mln. AQSh dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 110,5 % o‘sish kuzatilgan. MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog‘iston, Turkmaniston, Belarus Respublikasi, Tojikiston va Qirg‘iziston Respublikasi davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 40,1 %ni tashkil qiladi, boshqa davlatlar orasida Xitoy, Turkiya, Germaniya, AQSH, Birlashgan Arab Amirligi, Hindiston, Afg‘oniston, Litva, Korea Respublikasi, Chexiya Respublikasi, Fransiya, Buyuk Britaniya, Gruziya va Yaponiya yetakchi hamkor davlatlar hisoblanadi.



**Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta  
ulushga ega bo'lgan davlatlar, foizda  
(2024- yil yanvar-dekabr oylarida)**



Toshkent shahrining 2024- yil yanvar-dekabr holatiga tashqi savdoda eng asosiy hamkor davlatlari Rossiya Federatsiyasi (24,1 %), Xitoy (20,6 %), Afg'oniston (8,3 % ), Qozog'iston (7,6 %), Turkiya (7,2 %) hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,0 % ni tashkil qiladi.

Dunyodagi mamlakatlardan orasida eksportda hamkor davlatlar Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Afg'oniston, Qozog'iston, Turkiya, Boshqa davlatlar, Tojikiston va Qirg'iziston davlatlari hisoblanib, ularning jami eksportdagagi ulushi 69,8 % ni tashkil qiladi, importda esa hamkor davlatlar Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, Turkiya, Turkmaniston, Germaniya, Hindiston va AQSH davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 71,8 % ni tashkil qiladi.



**Toshkent shahar tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta  
ulushga ega bo‘lgan davlatlar hajmi  
(2024- yil yanvar–dekabr oylarida)**

(mln. AQSH dolları)

	Eksport	Import	Tovar aylanmasidagi ulushi, % hisobida
Rossiya Federatsiyasi	1105,3	5011,2	24,1
Xitoy	747,4	4484,4	20,6
Qozog‘iston	418,5	1469,5	7,5
Turkiya	395,8	904,8	5,1
Turkmaniston	39,0	868,7	3,6
Germaniya	40,1	625,9	2,6
AQSH	160,2	406,7	2,2
Boshqa Davlatlar	295,7	201,6	2,0
Arabiston (BAA)	148,9	335,8	1,9
Afg‘oniston	458,2	15,9	1,9
Xindiston	21,0	445,6	1,8
Belarus	54,7	333,0	1,5
Koreya Respublikasi	24,8	362,7	1,5

Toshkent shahrining eksport tarkibida qariyb barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo‘yicha o‘sishi kuzatilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari eksporti o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 10,4 % ga pasaygan, sanoat tovarlari 9,3 % ga ko‘paygan.

Import tarkibining umumiyligi hajmidan 26,4 % ni mashina va asbob-uskunalar hamda 15,6 % ni sanoat tovarlari tashkil qiladi.



## Eksport tarkibi

	Eksportning umumiy hajmidagi ulushi, foiz hisobida		2023- yil yanvar - dekabrga nisbatan, foiz hisobida
	2023- yil yanvar - dekabr	2024- yil yanvar - dekabr	
<b>Eksport tarkibi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>101,4</b>
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,4	3,9	89,6
ichimliklar va tamaki	1,6	1,8	114,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	1,0	0,9	85,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	3,6	5,1	145,9
Hayvonlar va o‘simpliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,1	7,9 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	8,1	6,8	84,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarları	15,4	16,6	109,3
Mashinalar va transport asbob- uskunaları	8,1	7,6	95,9
Turli xil tayyor buyumlar	4,0	3,3	83,1
Xizmatlar	52,9	53,1	101,8
Boshqa tovarlar	9,0	0,8	91,7



## Import tarkibi

	Importning umumiy hajmidagi ulushi, foiz hisobida		2023- yil yanvar - dekabrga nisbatan, foiz hisobida
	2023- yil yanvar - dekabr	2024- yil yanvar - dekabr	
<b>Import tarkibi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,4</b>
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik xayvonlar	8,8	9,5	108,4
ichimliklar va tamaki	0,9	1,2	126,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	1,3	1,3	98,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	8,6	13,5	158,9
Hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,1	1,0	88,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	13,8	13,8	100,4
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	16,5	15,6	94,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	30,4	26,4	87,3
Turli xil tayyor buyumlar	4,9	5,1	104,3
Xizmatlar	8,3	8,7	105,9
Boshqa tovarlar	5,4	3,9	72,2



**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan eksport**  
(2024-yil yanvar-dekabr oylarida)

	2024- yil yanvar-dekabr (AQSH.dollar)	2023- yil yanvar-dekabrga nisbatan % da
<b>Toshkent shahri</b>	<b>1 796,4</b>	<b>98,8</b>
Bektemir	2 370,2	175,8
Uchtepa	125,8	24,5
Yunusobod	1 618,7	100,7
Mirzo Ulug‘bek	890,3	108,6
Mirobod	8 033,7	104,4
Shayxontohur	1 082,7	55,8
Olmazor	513,9	78,1
Sergeli	2 676,1	108,2
Yakkasaroy	6 107,1	93,5
Yashnobod	1 303,4	87,2
Yangihayot	1 159,7	132,4
Chilonzor	1 395,0	101,2

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrining eksportida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan, yuqori ulushga ega tumanlar Mirobod 8033,7 AQSH.dollari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 foizga) o‘sgan, Yakkasaroy 6107,1 AQSH.dollari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,5 foizga) kamaygan va Sergeli 2676,1 AQSH.dollari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,2 foizga) o‘sgan bo‘lib, past ko‘rsatgichga Uchtepa 125,8 AQSH.dollari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 75,5 foizga kamaygan), Olmazor 513,9 AQSH.dollari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 21,9 foizga kamaygan), M.Ulug‘bek 890,3 AQSH.dollari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 8,6 foizga o‘sgan) hissasiga to‘g‘ri keladi.



**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan import  
(2024-yil yanvar-dekabr oylarida)**

	2024- yil yanvar-dekabr (AQSH.dollar)	2023- yil yanvar-dekabrga nisbatan % da
<b>Toshkent shahri</b>	<b>6 438,7</b>	<b>97,8</b>
Bektemir	14 837,9	136,6
Uchtepa	1 480,4	67,4
Yunusobod	6 088,7	99,8
Mirzo Ulug‘bek	8 209,3	144,0
Mirobod	18 393,5	82,3
Shayxontohur	3 709,2	86,1
Olmazor	3 517,2	93,7
Sergeli	8 198,2	79,3
Yakkasaroy	13 942,1	106,4
Yashnobod	4 794,8	89,3
Yangihayot	3 201,2	107,9
Chilonzor	7 958,6	91,2

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrining importida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan, yuqori ulushga ega tumanlar Mirobod 18393,5 AQSH.dollar (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 17,7 foizga kamaygan), Bektemir 14837,9 AQSH.dollar (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 36,6 foizga o‘sgan), Yakkasaroy 13942,1 AQSH.dollar (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,4 foizga o‘sgan) bo‘lib, past ko‘rsatgichga Olmazor 3517,2 AQSH.dollar (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 foizga kamaygan), Yangihayot 3201,2 AQSH.dollar (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 7,9 foizga o‘sgan) va Uchtepa 1480,4 AQSH.dollar (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 32,6 foizga kamaygan) hissasiga to‘g‘ri keladi.




**Eksport tovarlarni kichik biznes ulushi**  
(2024-yil yanvar-dekabr oylari, tumanlar kesmida)



■ ulushi, %

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrining kichik biznes ulushi eksportda yuqori ulushga ega tumanlar Uchtepa 46,5 foiz, Olmazor 37,8 foiz, Bektemir 30,8 foiziga, o'sgan bo'lib, past ko'rsatgichga Mirobod 4,6 foiz, Shayxontoxur 13,4 foiz va M.Ulug'bek 15,7 foiz hissasiga to'g'ri keladi.

**Import tovarlarni kichik biznes ulushi**  
(2024-yil yanvar-dekabr oylari, tumanlar kesmida)




■ ulushi, %



Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrining kichik biznes ulushi importda yuqori ulushga ega tumanlar Uchtepa 85,7 foiz, Yakkasaroy 58,1 foiz, Yashnobod 51,3 foiz bo‘lib, past ko‘rsatgichga Bektemir 28,4 foiz, Yunusobod 35,4 foiz va M.Ulug‘bek 22,7 foiz tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.


## Tovar va xizmatlarning eksport tarkibi, jamiga nisbatan, foizda

(2023 yil yanvar-dekabr va 2024-yil yanvar-dekabr oylarida)



## Tovar va xizmatlarning import tarkibi, jamiga nisbatan, foizda

(2023 yil yanvar-dekabr va 2024-yil yanvar-dekabr oylarida)





## TASHQI IQTISODIY ALOQALAR



**Hududlar kesimida tovar va xizmatlarning eksport tarkibi,  
(ming. AQSh doll), 2024- yil yanvar-dekabr oylarida**

	<b>oziq-ovqat mahsulotlari va tirik xayvonlar</b>	<b>ichimliklar va tamaki</b>	<b>nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg‘idan tashqari</b>	<b>mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar</b>	<b>hayvonlar va o‘simlik lar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar</b>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>215 482,2</b>	<b>97 390,3</b>	<b>47 190,1</b>	<b>283 032,2</b>	<b>4 432,7</b>
Bektemir	8 250,3	4 613,0	5 814,8	1 283,0	-
Uchtepa	8 056,5	17,2	399,2	-	9,7
Yunusobod	26 295,9	56 027,1	1 245,0	116 101,0	1 202,8
Mirzo Ulug‘bek	16 338,6	3 876,3	2 086,3	50,4	-
Mirobod	5 963,7	6 773,2	1 024,3	3 164,0	2 148,4
Shayxontohur	5 858,4	15,1	2 333,9	2,7	-
Olmazor	27 550,8	2 412,6	2 889,0	156,2	292,6
Sergeli	6 117,2	22,6	1 526,6	70 380,7	-
Yakkasaroy	20 507,3	14 957,8	555,7	1 021,1	4,8
Yashnobod	29 861,2	6 210,8	24 000,5	8 426,0	77,1
Yangihayot	12 319,2	602,4	3 145,6	-	426,8
Chilonzor	48 272,9	1 570,7	2 047,1	82 447,2	270,6
Tumandan tashqari	90,1	291,5	122,1	-	-



davomi

	Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	Asosan material turiga qarab klassifikatsiy alangan sanoat tovarlari	Mashinalar va transport asbob-uskunalar	Turli xil tayyor buyumlar	Xizmatlar	Boshqa tovarlar
<b>Toshkent shahri</b>	<b>374 360,5</b>	<b>920 193,1</b>	<b>422 189,9</b>	<b>182 787,8</b>	<b>2 936 637,0</b>	<b>43 591,2</b>
Bektemir	12 123,1	19 428,1	88 066,0	9 295,6	139,1	309,5
Uchtepa	437,0	8 678,2	210,8	17 439,2	2323,0	246,7
Yunusobod	4 755,1	12 236,6	64 001,5	9 659,2	307278,6	17426,8
Mirzo Ulug‘bek	4 498,9	65 964,9	18 474,3	8 512,8	172360,7	5297,9
Mirobod	5 865,4	10 544,0	148 594,0	11 275,7	1033535,9	1868,7
Shayxontohur	260 944,6	48 271,0	12 100,7	7 585,1	56762,1	4010,6
Olmazor	9 122,8	118 080,0	4 349,8	21 234,2	22379,3	1321,5
Sergeli	3 270,3	221 792,2	17 179,5	6 810,9	124229,3	5485,5
Yakkasaroy	38 374,3	23 743,7	37 946,8	38 748,5	657148,0	1226,6
Yashnobod	14 807,0	92 803,2	20 423,3	12 147,6	186274,6	2384,7
Yangihayot	10 905,2	155 343,0	8 088,0	16 605,6	375,0	2679,1
Chilonzor	8 802,8	143 243,6	2 672,7	23 147,0	71067,2	1325,8
Tumandan tashqari	454,1	64,7	82,5	326,6	302764,3	7,8



## TASHQI IQTISODIY ALOQALAR



**Hududlar kesimida tovar va xizmatlarning import tarkibi,  
(ming. AQSh doll) 2024- yil yanvar-dekabr oylarida**

	oziq-ovqat mahsulotlari va tirik xayvonlar	ichimliklar va tamaki	nooziq- ovqat xom-ashyo, yoqilg‘idan tashqari	mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash material lar	hayvonlar va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar
<b>Toshkent shahri</b>	<b>1 877 777,4</b>	<b>229 855,3</b>	<b>252 660,5</b>	<b>2 681 977,5</b>	<b>195 974,9</b>
Bektemir	83 482,0	692,7	14 210,7	9 200,1	767,4
Uchtepa	68 007,4	1 376,2	16 732,8	6 160,7	16 510,1
Yunusobod	96 819,8	49 803,9	47 607,7	164 695,6	11 037,4
Mirzo Ulug‘bek	96 883,2	50 562,2	14 150,2	1 602 972,1	3 098,7
Mirobod	186 375,2	66 287,4	7 232,1	126 779,8	74 392,1
Shayxontohur	126 557,8	10 169,4	35 898,4	33 900,9	21 883,8
Olmazor	170 436,6	1 347,8	39 711,3	27 896,6	6 826,8
Sergeli	195 156,0	8 801,6	22 773,3	19 790,9	21 953,3
Yakkasaroy	246 141,7	14 952,8	9 169,1	109 964,0	8 309,7
Yashnobod	185 470,9	5 644,1	19 746,6	38 445,9	1 525,8
Yangihayot	98 578,9	792,6	7 089,1	2 685,4	18 909,6
Chilonzor	315 011,8	19 424,5	17 909,0	539 485,1	10 760,1
Tumandan tashqari	8 856,0	-	430,2	0,6	-

*davomi...*

	<b>Kimyoiy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar</b>	<b>Asosan material turiga qarab klassifikatsiyal angan sanoat tovarlar</b>	<b>Mashinalar va transport asbob- uskunalar</b>	<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Boshqa tovarlar</b>
<b>Toshkent shahri</b>	<b>2 729 826,3</b>	<b>3 081 340,3</b>	<b>5 233 236,4</b>	<b>1 015 308,3</b>	<b>1 723 960,1</b>	<b>788 577,0</b>
Bektemir	228 444,5	105 867,7	457 368,8	20 197,2	40,4	14516,2
Uchtepa	50 339,9	160 527,6	70 431,9	31 763,5	188,9	22816,9
Yunusobod	250 371,3	221 097,9	807 868,6	168 637,8	294 614,5	205432,0
Mirzo Ulug‘bek	158 617,5	124 947,6	553 468,5	73 431,6	29 414,0	35180,7
Mirobod	308 325,2	264 680,1	875 741,6	108 153,5	738 062,4	61856,1
Shayxontohur	115 780,4	324 554,1	376 346,7	117 166,7	124 682,8	76194,5
Olmazor	595 604,9	194 928,2	162 142,1	70 106,8	107 034,7	59702,4
Sergeli	192 485,2	251 419,5	511 113,4	31 354,1	95 442,4	49147,5
Yakkasaroy	289 107,5	379 644,9	597 973,1	134 036,2	31 302,8	83884,5
Yashnobod	183 966,2	484 494,5	322 838,6	101 533,7	58 205,1	60052,6
Yangihayot	57 632,2	248 719,3	122 327,6	12 881,5	1 171,0	10228,1
Chilonzor	298 912,5	320 030,3	373 623,9	145 797,2	46 166,1	108644,2
Tumandan tashqari	239,1	428,6	1 991,6	248,5	197 635,0	921,4



O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo‘naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o‘z ta’sirini o‘tkazadi.


Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzlusiz ishlashini ta’minlash uchun respublikada zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishlarga import tovarlarning o‘rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Toshkent shahrining 2024- yil yanvar-dekabr holatida tashqi savdo aylanmasi Respublikaning tashqi savdo aylanmasida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 38,4 % ni tashkil etadi.

Toshkent shahrining 2024- yil yanvar-dekabr holatida eksport hajmi Respublika eksport hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 20,5 % ni tashkil etadi.

Toshkent shahrining 2024- yil yanvar-dekabr holatida import hajmi Respublika import hajmida eng yuqori ulushga ega bo‘lib, 50,8 % ni tashkil etadi.

#### 2024 yil yanvar-dekabr



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Tovar** – har qanday ko‘chma mult, shu jumldan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo‘lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlatiladigan transport vositalari, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mult obyektlari.

**Tovarlar eksporti** – agar qonunchilikda boshqa tartib ko‘zda tutilmagan bo‘lsa, tovarlarni O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

**Tashqi savdo aylanmasi** – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

**Tovarlar kelib chiqqan mamlakat** – tovar to‘liq ishlab chiqarilgan yoki yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar yetarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat “Bojxona tarifi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 26- moddasiga asosan aniqlanadi).

**Tovarlarning belgilangan manzili** – yuklab jo‘natish paytida tovar yetkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma’lum bo‘lgan mamlakat.

**Tovarlarning statistik qiymati** – shartnoma valyutasidan qat’i nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo‘yicha tovarlar qiymati.

**Xizmatlar (ishlar) eksporti** — O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat’i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).


**Xizmatlar (ishlar) importi** — norezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat’i nazar, ko‘rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).



2024-yilning yanvar-dekabr oylarida 16 298 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur’ati 0,1 % ga kamaygan.

Eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdo sohasida (jamiga nisbatan 34,8%), sanoat tarmog‘ida (13,6 %), qurilish tarmog‘ida (8,6 %), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarmog‘ida (7,4 %), axborot va aloqada (5,2 %), tashish va saqlash (4,4 %), sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmalar (1,8 %), qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi (1,0 %) va boshqa tarmoqlar (23,2 %) tashkil etgan.

#### 2024- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 67 214,2 mlrd.so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining indeksi 39,4 %) ni tashkil qiladi;



- investitsiyalar hajmi 35 316,2 mlrd. so‘mlik (umumiyligi investitsiyalar hajmidagi ulushi 40,0 %) o‘zlashtirildi va 2023-yilning yanvar– dekabrga nisbatan o‘sish sur’ati 5,9 % ni tashkil qildi;
- qurilish ishlari hajmi 39 038,7 mlrd.so‘mlik (qurilish ishlari umumiyligi hajmidagi ulushi 67,7 %) va 2023-yilning yanvar–dekabrga nisbatan o‘sish sur’ati 96,0 % ni tashkil qildi;
- xizmatlar hajmi 125 152,7 mlrd.so‘mlik ko‘rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 41,9 %), 2023-yilning yanvar– dekabrga nisbatan o‘sish sur’ati 99,6 % ni tashkil qildi;
- avtomobil transportida 52 000,0 ming.tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 38,4 %), 2023 yilning yanvar – dekabrga nisbatan o‘sish sur’ati 106,1 % tashkil qildi;
- avtomobil transportida 1 033 600,0 ming.yo‘lovchi tashilib (umumiyligi yo‘lovchi tashishdagi ulushi 73,7%), 2023-yilning yanvar–dekabrga nisbatan o‘sish sur’ati 102,2 % ni tashkil qildi;
- savdo hajmi 64 517,9 mlrd. so‘mlik chakana tovar aylanmasi shakllanib (umumiyligi chakana tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 61,2 %), 2023-yilning yanvar–dekabrga nisbatan o‘sish sur’ati 101,6 % ni tashkil qildi;
- tovarlar eksport hajmi 1 160,7 mln AQSh dollarni (umumiyligi eksport hajmidagi ulushi 21,0 %), 2023-yilning yanvar–dekabrga nisbatan o‘sish sur’ati 69,0 % ni tashkil qildi;


#### **Kichik tadbirdorlikning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi (umumiyligi hajmiga nisbatan mlrd.so‘mda)**

Tumanlar bo‘yicha eng yuqori sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmi Olmazor (8772,9 mlrd.so‘m), Chilonzor (6615,5 mlrd. so‘m), Yashnobod (6060,2 mlrd. so‘m), Sergeli (6187,9 mlrd. so‘m), Bektemir (5893,3 mlrd. so‘m), Mirzo Ulug‘bek (4704,1 mlrd. so‘m), Mirobod (4228,5 mlrd. so‘m) tumanlar hissasiga to‘g‘ri keladi.


Yunusobod (4034,8 mlrd. so‘m), Yakkasaroy (3707,1 mlrd. so‘m), Uchtepa (3606,2 mlrd. so‘m), Shayxontohur (2995,6 mlrd. so‘m) va Yangihayot (2925,6 mlrd.so‘m) tumanlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo‘lib qolmoqda.



**2024 -yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va ulushi**



**2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik  
(biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**






Chakana tovar aylanmasi bo'yicha eng yuqori hajm Chilonzor (11 670,6 mlrd.so'm), Uchtepa (7 929,7 mlrd.so'm), Yunusobod (6 935,6 mlrd.so'm), Shayxontohur (6 414,7 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, tumanlar bo'yicha eng past chakana tovar aylanmasi Bektemir (3 441,3 mlrd. so'm), Sergeli (3 267,5 mld.so'm) va Yangihayot (963,9 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


### 2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirdorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Qurilish sohasi bo'yicha eng yuqori hajmga ega bo'lgan Mirobod (3843,1 mlrd. so'm), Mirzo Ulug'bek (3175,4 mlrd.so'm), Yunusobod (3003,9 mlrd. so'm), Yakkasaroy (2910,0 mlrd. so'm) va Yashnobod tumani (2812,1 mlrd. so'm), tumanlariga to'g'ri keladi. Chilonzor ( 2639,2 mlrd. so'm),Shayxontohur tumani (1524,9 mlrd.so'm), Olmazor tumani (1738,4 mlrd.so'm), Sergeli tumani (1412,0 mlrd.so'm), Yangihayot tumani (1694,7 mlrd. so'm),, Uchtepa tumani (1109,4 mlrd.so'm) va Bektemir tumani (771,4 mlrd.so'm) qurilish sohasida past hajmga ega.



**2024-yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da investitsiya sohasi hajmi va ulushi**



Investitsiya sohasi bo‘yicha eng yuqori hajmlar Yashnobod (4052,9 mlrd. so‘m) Mirzo Ulug‘bek (4683,1 mlrd. so‘m), Yunusobod (4876,3 mlrd. so‘m), Uchtepa (2847,6 mlrd.so‘m) Shayhontoxur (2938,8 mlrd.so‘m) Yakkasaroy (2226,6mlrd.so‘m), Sergeli (2938,7 mlrd. so‘m) tumanlariga to‘g‘ri keladi. Mirobod (2010,8mlrd.so‘m), Chilonzor( 3889,0 mlrd. so‘m), Olmazor ( 2611,5 mlrd. so‘m), Yangihayot (1674,4 mlrd. so‘m), Bektemir (565,9 mlrd. so‘m) tumanlarida investitsiya hajmi past bo‘lib qolmoqda.

**2024- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati**





Xizmatlar sohasida eng yuqori hajmlar Mirobod (13374,8 mlrd.so‘m), Yakkasaroy (12737,4 mlrd. so‘m), Yunusobod (16082,2 mlrd.so‘m), Mirzo Ulug‘bek (12 747,9 mlrd. so‘m), Chilonzor (8655,1 mlrd.so‘m), Yashnobod (8 223,0 mlrd. so‘m) va Shayxontoxur 8157,1 mlrd. so‘m) Olmazor (7471,8mlrd.so‘m), tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Eng past xizmat hajmiga ega bo‘lgan Sergeli (4911,7 mlrd.so‘m), Uchtepa (5249,6 mlrd.so‘m), Bektemir (2990,7mlrd.so‘m) va Yangihayot (1662,0 mlrd.so‘m) tumanlari hisoblanadi.

**2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ulushi, foizda**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Chakana savdo
<b>Toshkent shahri</b>	<b>39,4</b>	<b>67,7</b>	<b>41,9</b>	<b>61,2</b>
<i>tumanlar:</i>				
Bektemir	31,8	49,8	45,1	88,7
Mirzo Ulug‘bek	42,7	73,8	47,7	60,0
Mirobod	39,6	65,4	47,3	48,0
Olmazor	66,3	62,3	34,7	64,2
Sergeli	35,1	86,8	44,1	53,1
Uchtepa	57,3	86,2	37,2	84,3
Chilonzor	46,1	72,8	27,2	67,4
Shayxontohur	32,9	39,4	27,3	55,3
Yunusobod	69,6	42,6	34,9	64,3
Yakkasaroy	47,2	56,5	54,3	48,5
Yashnobod	20,0	82,3	50,4	51,1
Yangihayot	26,5	79,6	34,8	60,6

Tumanlar bo‘yicha sanoat mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha eng yuqori ulush Yunusobod (69,6%), Olmazor (66,3 %), Yakkasaroy (47,2%), Mirobod (39,6%), Chilonzor (46,1%), Mirzo Ulug‘bek (42,7%), Shoyxontoxur (32,9%), Bektemir (31,8%), Sergeli (35,1%), Uchtepa (57,3%), Yangihayot (26,5%), va Yashnobod (20,0%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Qurilish bo‘yicha eng yuqori ulush Sergeli (86,8%), Uchtepa (86,2%), Yunusobod (42,6%), Yangihayot (79,6%) Mirzo Ulug‘bek (73,8%), Chilonzor (72,8%), Yakkasaroy (56,5%), Mirobod (65,4%), Olmazor (62,3%), Bektemir (49,8%), Yashnobod (82,3%), va Shayxontoxur (39,4%), tumanlariga to‘g‘ri keladi.



Xizmatlar sohasida eng yuqori ulush Yakkasaroy (54,3%), Yashnobod (50,4%), Mirobod (47,3%), Mirzo Ulug‘bek (47,7%), Yangihayot (34,8%) Sergeli (44,1%), Uchtepa (37,2%), Bektemir (45,1%), Olmazor (34,7%) Chilonzor (27,2%), Yunusobod (34,9%) va Shayxontohur (27,3%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Chakana savdo aylanmasida eng yuqori ulush Bektemir (88,7%), Uchtepa (84,3%), Chilonzor (67,4%), Olmazor (64,2%), Yunusobod (64,3%), Yangihayot (60,6%), Mirzo Ulug‘bek (60,0%), Shayxontohur (55,3%), Yashnobod (51,1%), Mirobod (48,0%) Yakkasaroy (48,5%) va Sergeli (53,1%) tumanlariga to‘g‘ri keladi.


2024-yilning yanvar–dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagisi ulushi 52,4 % ni tashkil qildi (2023-yilning yanvar– dekabr 51,7 %), YAHM tarkibi o‘tgan yilga nisbatan 0,7 foizga kopaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 2024-yil yanvar– dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi. Unda 3 870 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma’lumotlari tahlili, sanoat sohasida respondentlarning 32,7 % i qulay va 59,4 % esa qoniqarli, qurilish sohasida 32,4 % qulay va 53,2 % esa qoniqarli, savdo sohasida 32,8 % qulay va 58,3 % qoniqarli, xizmatlar sohasida 36,1 % qulay va 57,2 % qoniqarli ni tashkil qilganini ko‘rsatdi.

Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar xizmatlarda 6,7 %, qurilishda 14,4 %, savdoda 8,9 % va sanoatda 7,9 % ni tashkil qildi.

**Kichik tadbirkorlikda iqtisodiy vaziyatni tarmoqlar kesimida baholash  
2024- yil yanvar-dekabr oylarida, foizda**



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyl iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobjiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.



## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik)** – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

**Yuridik shaxs** – o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatları yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

**Tadbirkorlik subyektlari o‘z faoliyatlarini** muvofiqlashtirish, shuningdek, o‘z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo‘lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

**Chakana savdo bu** – oxirgi foydalanuvchilarga tovarlar va xizmatlar sotish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat.

**Ulgurji savdo bu** – katta miqdordagi tovarlarni sotishni o‘z ichiga olgan iqtisodiy faoliyat.

**Kichik va o‘rta biznes** - mustaqil mulk egaligiga, xo‘jalik faoliyatini mustaqil tashkil etishga asoslangan va o‘z tarmog‘ida hukmron mavqe tutmaydigan biznes. Turli mamlakatlarda kichik va o‘rta biznes sub’yektlari maqomini belgilab beruvchi mezonlar sifatida korxonada band bo‘lgan ishlovchilar soni, korxonaning tovar aylanmasi, aktivlar, kapitallar, foyda miqdori va boshqa ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sub’yektlarini aniqlashda korxonada ishlovchilar soni mezon qilib olingan.



**Foyda.** Hisobot ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilning yanvar-noyabr oylari uchun korxona va tashkilotlar tomonidan 33 583,5 mlrd.so'm miqdorda yakuniy moliyaviy natija olindi.

2023-yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foyda hajmi 15 543,9 mlrd.so'mga ko'paygan.

**2024-yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
yirik tijorat tashkilotlarining yakuniy moliyaviy natijalari**

	Foyda, zarar (-), mlrd. so'm	2023- yilning yanvar-noyabrga nisbatan, % da
<b>Jami</b>	<b>33 538,5</b>	<b>186,0</b>
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash	508,3	17,1
Ishlab chiqaradigan sanoat	4 261,5	105,9
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	5 401,4	-
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	135,4	-
Qurilish	743,7	404,3
Savdo	4 445,7	104,3
